UDK:81’42:811.512.133:811.111 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a114**

INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA TO‘LIQSIZ GAPLARNING SHAKLLANISHI

CLASSIFICATION OF INCOMPLETE SENTENCES IN ENGLISH LANGUAGE

КЛАССИФИКАЦИЯ НЕПОЛЬНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

[1]Buriyeva Umida Abdumuminovna
[1]O‘zbekiston milliy universiteti, Tarjima nazariyasi va qiyosiy tilshunoslik kafedrasi
katta o‘qituvchisi f.f.f.d.,PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek, rus asosan ingliz tilshunoslarining to‘liqsiz gaplarga berilgan tasniflari badiiy adabiyotlardan olingan misollar asosida tahlil qilingan. Hozirgi vaqtda tilshunoslikda to‘liqsiz gaplarning sintaktik kvalifikatsiyasi ko‘pincha tushunarsiz va noaniq, ularning ko‘p jihatlari hali yetarlicha o‘rganilmagan. Norasmiy nutq til resurslarini tejashga yordam beradi. Aloqa qulayligi ma’noni saqlab, jumlalarni bir yoki bir nechta so‘zlarga qisqartirishga imkon beradi.

Аннотация

В данной статье на основе примеров, взятых из художественной литературы, анализируются классификации неполных предложений узбекских, русских, преимущественно английских лингвистов. В настоящее время в языкознании синтаксическая квалификация неполных предложений часто неясна и неясна, многие их аспекты еще недостаточно изучены. Неформальная речь помогает экономить языковые ресурсы. Простота общения позволяет сокращать предложения до одного или нескольких слов, сохраняя при этом смысл.

Abstract

In this article, based on examples taken from fiction, the classifications of incomplete sentences of Uzbek, Russian, mainly English linguists are analyzed. At present, in linguistics, the syntactic qualification of incomplete sentences is often unclear and unclear, many of their aspects have not yet been sufficiently studied. Informal speech helps save language resources. Ease of communication allows sentences to be shortened to one or more words while retaining meaning.

Kalit so‘zlar: *elliptik konstruksiyalar, to‘liqsiz gaplar, kontekstual to‘liqsiz gap, situativ to‘liqsiz gap, dialogik to‘liqsiz gap.*

Ключевые слова: *эллиптические конструкции, неполные предложения, контекстуальное неполное предложение, ситуационное неполное предложение, диалогическое неполное предложение.*

Key words: *elliptic constructions, incomplete sentences, contextual incomplete sentence, situational incomplete sentence, dialogical incomplete sentence.*

KIRISH

Til tarkibida elliptik konstruksiyalarning mavjudligi sintaksis rivojlanishining tabiiy jarayoni sifatida yuzaga kelgan bunday qurilishlar deyarli barcha tillarda uchraydi. Badiiy adabiyotda va gazeta tilida, shuningdek, notiqning nutqida to‘liq bo‘lmagan va elliptik jumlalarning har xil turlari keng qo‘llaniladi. Ellipslar ifoda vositalari jihatidan nihoyatda tejamkor. Sintaktik ellipsis (gapning u yoki bu bo‘lagini tushirib qoldirish, kontekstdan osongina tiklash mumkin) va semantik ellipsis (gap tarkibini nutqiy vaziyatdan osongina tiklash) o‘rtasida farqlash odatiy holdir. Elliptik gaplar boshqa gaplardan “tushib qolgan” komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Rus N.S.Valgina, L.S.Barxudarov, T.A.Golikova, K.S.Neustroyev, N.M.Rayevskalar va ingliz tilshunoslaridan Stefen Fray (Stephen Fry) kabi mualliflarning ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Ushbu maqolani yozishda tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tasniflash, kontekstual, differensial-semantik tahlil kabi bir qator metodlardan foydalanilgan va bir qator tilshunoslarining ilmiy ishlarni tahlili asosida yoritilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Rus tilshunosi N.S.Valgina to‘liqsiz gaplarning ikki turini quyidagicha tahlil qilgan:

To‘liqsiz gaplar kontekstual xamda situativ turlarga bo‘linadi. Kontekstual to‘liqsiz gaplar gap bo‘laklari tushib qolgan, ammo shu gap yoki yonidagi gaplar kontekstidan anglash mumkin bo‘lgan gaplarga aytiladi: *По одну сторону прорыва, скрестив руки, в женском малиновом берете — фигурант с голубыми глазами и маленькими черными усиками над загнутыми в*

мефистофельскую улыбку тонкими, змеистыми губами. По другую стоял начальник, и каждый знал, что начальник сейчас за правду стоит и ни одной минуты не поколеблется (Пришв) [2003. – С. 195-196]. (Birinchi gapda *стоял* fe'li tashlab ketilgan, ikkinchi gapda berilgan, ikkinchi gapda esa, xol tushib qolgan. *сторону*, birinchi gapda esa xol to'liq berilgan – *по одну сторону*).

Quyidagi ingliz tilidagi misollarni ko'rib chiqsak: *I don't remember if I got breakfast or not. Probably not.* (Ken Kesey)

Kontekstual gaplar ham har xil turlarga ajratiladi:

1.Bosh yoki ikkinchi darajali bo'laklari tushib qolgan sodda gaplar:

a) Eganing mavjud emasligi: *Постой, ты кто же? — удивился Куров. — Ростислав Соколов, — отрекомендовался мальчик и даже поклонился при этом* (Б. Пол.).

б) Kesimning mavjud emasligi: — *Ты бросил жену, Микола? — Нет, она меня* (Шол).

в) Ega va kesimning mavjud emasligi: — *Булочник Коновалов здесь работает? — Здесь! — ответил я ей* (Максим Горький).

г) Kesim va xolning mavjud emasligi: *Калиныч стоял ближе к природе. Хорь оке! — к людям, к обществу* (Т).

д) To'ldiruvchi va kesimning mavjud emasligi: *Кто его ждал? Пустая неуютная комната* (Б. Пол).

е) Ikkinchi darajali bo'lakning mavjud emasligi (to'ldiruvchi xol): *Мать сунула отцу морковь, а перчатки дать забыла. Я протянул отцу свои* (С. Бар*.).*

Quyida ingliz tilidagi misollarni ko'rib chiqamiz:

a) *What kind of cupcake would you like? A chocolate one, please*. b) *I didn't like the film, but everyone else did (liked the film).* c) *I have no data yet. It is a capital mistake to theorize before one has data. Insensibly one begins to twist facts to suit theories, instead of theories to suit facts. But the note itself.* (Arthur Conan Doyle)

Birinchi gap dialogik to'liqsiz gap bo'lib, a chocolate one to'ldiruvchiga urg'u berilgan, ega va kesim tushib qolgan. Ikkinchi gapda esa *liked the film* asosiy kesim tushirib qoldirilgan, o'rniga *did* yordamchi fe'l ishlatilgan. Uchinchi gapda esa ega mavjud, lekin kesim tushirib qoldirilgan.

2. Qismlari tushirib qoldirilgan murakkab gaplar: *—Ну, где ж твои Ближние Мельницы?—А это тебе что? Скажешь, не мельницы? — Где? — Что значит, "где"? Тут. — Где же тут? — Где мы идем* (Кат). Oxirgi gapda qo'shma gapning bosh qismi tushirib qoldirilgan.

3. Teng bog'langan qo'shma gapda: *В одной руке он держал удочку, а в другой — кукан с рыбешкой* (Сол). Bu gap qo'shma gap bo'lib, uning ikkinchi qismida to'ldiruvchi tushirib qoldirilgan.

Ergashgan qo'shma gapda: *Лопахин прыгнул в окоп и, когда поднял голову, увидел, как ведущий самолёт, нелепо завалившись на крыло, оделся черным дымом и стал косо падать* (Шол). Gapning ergash gap qismida ya'ni, kogda podnyal golovu, asosiy qismga xam tegishli bo'lgan ega aytib o'tilmagan.

Bog'lovchisiz qo'shma gapda: *Так и едем: по ровному месту на телеге, в гору — пешком, а под гору — так с трусцой* (Сол.) Gapning izohlanayotgan qismida gapning izohlayotgani eslatib o'tilgan kesim tushirib qoldirilgan.

Quyida ingliz tilidagi misollarni ko'rib chiqamiz:

"Let me see!" said Holmes. "Born in New Jersey in the year 1858. Contralto! La Scala. Prima donna Imperial Opera of Warsaw-yes! Retired from operatic stage-ha! Your Majesty, as I understand, became entangled with this young person, wrote her some compromising letters, and is now desirous of getting those letters back" (Arthur Conan Doyle). Yuqorida berilgan gaplar to'liqsiz sodda gaplar bo'lib, ba'zilarida ega ba'zilarida kesim tushib qoldirilgan. Oxirgi gap qo'shma gap bo'lib, ega tushirib qoldirilgan.

Situativ to'liqsiz gaplarda ham gap bo'laklari tushirib qoldiriladi, gap ma'nosi situatsiya yoki muhitga qarab anglab olinadi. Bunday gaplarda umumiy nutqiy akt tushib qolgan bo'laklar o'rnini to'ldirib turadi, qolgan bo'laklar shakli ular bilan grammatik bog'liqlik borligini ko'rsatadi:

Я — в лавочку... муки надо и соли. — Не надо муки, не надо соли, — проговорил он, — на дворе сыро, слякоть. — Я резиновые надела, — сказала молодая женщина (Грин)[2003. – С. 197-198].

Ingliz tilidagi misollarni ko‘rib chikamiz:

a) Would you like a cup of tea? Coffee, please.

b)-Vania! came faintly from the stage.

-Give yellow (the situation of speech suggests that this means yellow light).

c)- I – in a shop – need flour and salt. “No flour, no salt,” he said, “it’s damp, slush in the yard.”

d)-I was only Crown Prince then.

Bu gaplar situativ to‘liqsiz gaplar bo‘lib, suhbat nima haqidaligini situatsiya yoki muhitga qarab anglash mumkin.

Tilshunos L.S.Barxudarov to‘liqsiz gaplarni struktur va semantik xususiyatlari, ishlatilish shartlari, nutq turi va formasiga ko‘ra turlariga ajratgan: “По соотношению структурных и семантических свойств можно выделить а) семантически неполные, но структурно полные предложения; б) структурно и семантически неполные; в) структурно неполные, но семантически полные (так называемые эллиптические)” [2004. – С. 73-75].

Ular orasida struktur va semantik jihatdan to‘liq bo‘lmagan gaplar markaziy o‘rinni egallaydi, ular nutq shakli(og‘zaki va yozma) jihatidan situativ va kontekstual to‘liqsiz gaplarga bo‘linadi. Situativ to‘liqsiz gaplarda yetishmayotgan bo‘laklarni situatsiya aniqlab beradi. Masalan, “*There!*” ga o‘xshash gaplar nutqiy vaziyatga ko‘ra to‘ldiriladi: “*There is a train*!” ёки “*Maria! Don't tell him anything!*”. Nutq vaziyati og‘zaki nutqni o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Kontekstual to‘liqsiz gaplarda tushib qolgan bo‘laklar kontekstdan aniqlanadi.

Bulardan tashqari, Barxudarov dialogli va monologli to‘liqsiz gaplarni ham ajratib ko‘rsatgan: “В монологической речи можно выделить неполные предложения с учетом уровневых различий синтаксических единиц: а) неполные предложения, в которых не повторяется часть сложной формы слова или часть цельного словосочетания, составляющего один член предложения. Например: *I will pay for ingredients, Alice – cook a pie and you – bring it to Granny*” [2004. – С. 195-196].

Stefen Fray ham ellipsisning shu turlarini o‘rgangan: Sintagmatik jihatdan to‘liq bulgan gaplar ellipsisga uchraganda ularni gapning o‘zidan oldingi yoki keyin gaplarning mazmuniga qarab tiklash mumkin bo‘ladi: *I hope you aren't bringing up that dreadful case as proof that your heart is bigger than mine. You were a maid too once. Not even a housemaid. Just a kitchen maid”.*

Bulardan tashqari Stefen Fray (Stephen Fry) ellipsislarni sintaktik (tushib qolgan gap bo‘laklari kontekstdan tiklanishi mumkin) va semantik (gapning komponentlari nutqda osongina tiklanadi) turlariga ajratgan: “Semantik ellipsis so‘zlashuv nutqiga ko‘proq hos, chunki dialogdagi har bir gap avvalgisi bilan bog‘liqdir. Ketma-ket kelgan savol-javoblar nutqni faollashtiradi va so‘zlovchi hamda tinglovchigagina ma’lum bo‘lgan umumiy faktlarga asoslangan holda, presuppozitsiyani birlashtiradi” [2014. – P. 103,57]. Masalan:*“Can we talk?” “Not over the phone”.*

Boshqa tilshunos T.A.Golikova ham ellipsislar haqida qo‘yidagi fikrlarni bergan: Agar semantik ellipsis kontekstga asoslangan, ya’ni sintaktik jihatdan tugallangan bo‘lsa, u holda sintaktik ellipsis analogiyaga asoslanadi. Sintaktik ellipsis ingliz tilining shartli konstruksiyalaridagi murakkab jumlalarga kamroq xolatlarda hos bo‘ladi. Elliptik konstruksiyalarda eng ko‘p tarqalgani kesimning tushib qoldirilishi hisoblanadi.

Elliptik konstruksiyadagi if, *any, if*, *anything*, kuchaytirishni ifodalaydi: *Objections to this plan, if any, should be reported to the committee at once. If considered from this point of view, the problem takes on a new aspect.*

Elliptik konstruksiyalarda shuningdek, kesim tushib qolganda *whatever u however*, kabi birlashtiruvchi birliklarni ham o‘z ichiga oladi: *The British people have to submit to new taxation, however high*.

Though bog‘lovchisi ham oddiy gapning ohirida kelib, keyingi gap bilan o‘zaro ma’no jihatdan bog‘laydi: *He didn't tell me where he had been, but I know, though.*

Bundan tashqari elliptik konstruksiyalarda o‘tgan zamon fe’lining when yoki if, bog‘lovchilar bilan bog‘lanishi odatda to‘liq ergash gapga aylantiradi: *Mr. Nelson (Labour) said if elected he would support the workers' wage demand.*

Keyingi misolda elliptik konstruksiyaning o‘tgan zamon fe’li bilan birga kelishi kelishi qiziqarli: *The tribunal's decisions, when arrived at, reflected the opinions of the members.* Bunday konstruksiyalar bog‘lovchilarsiz ham bo‘lishi mumkin: *Questioned about his reaction to the announcement he replied...”* [2005. – C. 109-110].

Tilshunos K.S.Neustroyev buyruq gaplar ichida ellipsislarni ham o‘rgangan: “elliptik gaplarni ikkiga bo‘lish mumkin 1) imenniye – *Dinner, Three whiskies, please* и 2) наречные — *Forward!* Одним из примеров употребления подобных побудительных предложений является их реализация в качестве военных команд *Eyes right'* (именное побудительное предложение), *About face!* (наречное побудительное предложение)” [2008. – C. 133].

N.M.Rayevska ingliz tilidagi gap konstruksiyasida ellipsis sintaktik jarayonni o‘rgangan. U elliptik gaplarni lingvistik tejamkorlik formasi sifatida belgilagan va quyidagi turlarini ko‘rib chiqqan [2009. – P. 213]:

a) eganing tushib qolishi: *Looks to me for all the world like a tame leopard.* (John Galsworthy)

b) there is, there are konstruksiyasida kesimning tushib qolishi: *He shook a thick finger at the room: "Too many women nowadays, and they don't know what they want.* (Galsworthy)

v) yordamchi va bog‘lovchi fe’llarning tushib qolishi: *You going to take Irene?* (John Galsworthy)

g) ega va yordamchi fe’lning tushib qolishi: *Mean to tell me you didn't know? Remember that boy? Staying with my father? Going to marry him? "Hallo, Michael! I'm rather late. Been to the Club and walked home".* (John Galsworthy)

d) ega va bog‘lovchi (copula) fe’lning tushib qolishi: *I don't write. Not such a fool.* (John Galsworthy)

XULOSA

Til vositalarini tejash bu ko‘plab tillarda keng tarqalgan hodisalardan biridir. Shuni ta’kidlash kerakki, elliptik gaplar to‘liqsiz gaplar deb ham ataladi. To‘liqsiz gaplar kabi tilshunoslik hodisasining shakllanish xususiyatini tahlil qilib, shunday xulosaga kelish mumkinki, lisoniy vositalarni tejash zarurati va shunga xizmat qiladigan nutqiy vaziyat tugallanmagan jumlalar paydo bo‘lishining asosiy omillaridandir. Shu sababli, pragmatik va semantikaga oid ingliz tilidagi to‘liqsiz gaplar bilan bog‘liq tekshirilgan muammolar, shubhasiz, hozirgi kungacha dolzarb bo‘lib qolmoqda. Tahlillardan shu ma’lum bo‘ldiki, o‘zbek va ingliz tilshunoslari to‘liqsiz gaplarni turlicha tasniflashgan. O‘zbek tilshunosligida to‘liqsiz gaplarning lisoniy qiymati emas, balki konkret nutqiy ahamiyati ochiladi. Elliptik gaplarni sinchiklab ko‘rib chiqilganda, to‘liq va to‘liqsiz gaplar o‘rtasida aniq chegara yo‘q. Elliptik gaplar qanday situatsiya bo‘lmasin, qanday kontekst bo‘lmasin semantik jihatdan to‘liq hisoblanadi. Zamonaviy tilshunos olimlar to‘liqsiz jumlalar bilan bog‘liq masalalarga alohida e’tibor berishadi, chunki ular ma’lumot yetkazishning eng samarali sintaktik usullaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Валгина, Н.С. В 15 Современный русский язык: Синтаксис: Учебник / Н.С. Валгина. – 4-е изд., испр.: – М.: Высщая школа, 2003. – С. 195-196.
2. Бархударов Л.С. Структура простого предложения современного английского языка. – М.: 2004. – С. 195-196.
3. John Fry, Stephen. Making History: fiction. / Stephen Fry. – New York: Soho Press, 2014. – P. 103,57.
4. Голикова.Т.А. Этнопсихолингвистическое исследование языкового сознания (на материале алтайско-русского ассоциативного эксперимента). – М.: 2005. – С. 109-110.
5. Неустроев К. С. Способы выражения побуждения и воздействия. – М.: Наука, 2008. – С. 133.
6. Rayevska N.M. Modern English Grammar. – B: 2009. – P. 213